

ABDULLA ORIPOVNING “YOLG‘IZLIK” SHE’RI TAHLILI

Ruxsatoy Ashurova

Xalqaro innovatsion universitet talabasi

Ilmiy rahbar: Nurali Murodillayev, XIU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Inson tabiatan ijtimoiy mavjudot bo‘lib, uning hayotida o‘zaro muloqot va munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Ammo ba‘zan inson yolg‘izlikni ham his qiladi, bu esa uning ruhiy kechinmalari va hayotiy qarashlariga ta’sir o‘tkazadi. Yuqoridagi she’r ana shu ikki qutb – yolg‘izlik va do‘stlik mavzusini falsafiy jihatdan yoritadi. Ushbu maqolada she’r tahlili asosida inson hayotidagi ushbu muhim tushunchalarni kengroq muhokama qilamiz.

Kalit so‘zlar: do‘st, yolg‘izlik, do‘stlik, ezgulik, hayot falsafasi.

Abstract. Man is a social being by nature, and communication and relationships play an important role in his life. However, sometimes a person also feels loneliness, which affects his spiritual experiences and outlook on life. The above poem philosophically illuminates the topic of these two poles – loneliness and friendship. In this article, based on the analysis of the poem, we will discuss these important concepts in human life in more detail.

Keywords: friend, loneliness, friendship, goodness, philosophy of life.

She’rning birinchi qismida lirik qahramon o‘zini “*uyuridan ketgan ot*”ga o‘xshatadi. Bu tasvir yolg‘izlikning og‘riqli jihatlarini ko‘rsatib beradi. Yolg‘izlik har xil sabablarga ko‘ra paydo bo‘lishi mumkin: inson jamiyatdan uzoqlashishi yoki yaqin do‘stlarini yo‘qotishi, ba‘zan o‘zi ongli ravishda yolg‘izlikni tanlab, o‘z ichki dunyosini tushunishga harakat qilishi, ba’zida esa o‘z atrofiga to‘g‘ri insonlarni to‘plashda qiynalib, natijada yolg‘izlik muammosiga duch kelishi mumkin.

She’rda “*Qachondir yolg‘izlik kelmasmi malol?*”– deb so‘ralishi bejiz emas. Yolg‘izlik uzoq davom etsa, inson ruhiyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Illo, odamzodning asosiy ehtiyojlaridan biri tushunish va tushunilgan bo‘lishdir.

She’rning ikkinchi qismida muallif yolg‘izlikning salbiy jihatlariga qarshi davo sifatida do‘stlik ekanligini e’tirof etadi. U do‘stlarni “*bir yurtning hiroji qadar*” qimmatli deb ta’riflaydi. Bu esa haqiqiy do‘stlikning qadrini anglatadi. Haqiqiy do‘stlikning asosiy belgilariga esa sodiqlik va ishonch, qadr va hurmat, yaxshi kun va og‘ir paytlarda birga bo‘lish kabi tushunchalar kiradi. Chunki do‘stlar bir-biriga sodiq bo‘lishi va do‘stlik masalasiga ishonch bilan yondashishi kerak. Shu bilan birga chin do‘stlik o‘zaro hurmat va inson qadrini bilish bilan mustahkamlanadi. Haqiqiy do‘st faqat quvonchingizga sherik emas, balki og‘ir kunlarda ham yoningizda bo‘ladigan kishi ekanligi qadimiy hikmatdir. She’rda “*Yurakning qatida asrab kelgulik*” degan

jumla aynan do'stlikning bebaho ekanligini bildiradi. Do'stlar shunchaki tanish bo'lishi emas, balki inson qalbida chuqur iz qoldiradigan bebaho gavhar bo'lishi kerak.

She'rning uchinchi qismi nasihatlar bilan yakunlanadi. *“Nomardga yalborma, qolsang hamki och”* satri inson o'z qadrini yo'qotmasligi kerakligi haqida o'git beradi. Moddiy yoki ma'naviy jihatdan qiyin ahvolda bo'lsa ham, inson o'z g'ururini saqlashi lozimligini uqtiradi.

“Aytilmagan joyga bosh suqma zinhor” misrasi orqali esa o'zini hurmat qilgan odam keraksiz joyga bosh suqmasligi lozimligini eslatadi.

Inson qadrini bilmaydigan muhitdan uzoqlashishi kerakligini *“Qadringni bilmagan davralardan qoch”* kabi misralarida ifodalaydi. Illo, har kim ham bizni qadrlayvermaydi, shuning uchun o'zimizni hurmat qiladigan odamlarga yaqin bo'lishimiz lozim.

Xulosa shuki, ushbu she'r inson hayotidagi muhim tushunchalarni o'zida aks ettirgan. Yolg'izlikning inson ruhiyatiga ta'siri, do'stlikning bebaho ekanligi, va hayotda o'z qadrini saqlashi kabi mavzular yoritilgan. Shuningdek, do'stlikni qadrlash, insonning o'zini anglashi va o'z sha'nini saqlashga bo'lgan ehtiyoji ham ushbu she'rda o'z aksini topgan. Bu esa bizga faqatgina do'stlar bilan emas, balki kim bilan muloqot qilish va qaysi davrada bo'lish kerakligini tushunishga yordam beradi. Shunday ekan, haqiqiy do'stlikni qadrlash va yolg'izlikning sabablarini tushunish har bir inson uchun muhim hayotiy saboqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begimqulov D. Ruhiyat iqlimlari inkishofi, A.Oripov *“Tanlangan asarlar”*, VII jild. Toshkent, 2013.
2. Nazarov B. Abdulla Oripov, O'zbek adabiyoti, Toshkent, 1997.
3. Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
4. Oripov A. Sohibqiron. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.
5. Oripov A. Surat va siyrat. – Toshkent, 1996.
6. Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.